

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY – MILLAT FIDOYISI

MURODXONOV MUHAMMADNUR

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
Yurisprudensiya (Islom huquqi), 2-bosqich talabasi.*

Annotatsiya: Mahmudxo‘ja Behbudiy ishlarida asosiy mazmun-mohiyatini qamrab olgan Vatan tuyg‘usini ko‘rsatib berisah orqali mutafakkirning nomini ommaga yoyish borasida tahlil qilingan. O‘tgan asr boshidagi milliy uyg‘onish harakatini Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyatidan ayri tasavvur etib bo‘lmaydi. O‘tmishda din birligining timsoli hisoblangan “millat” tushunchasini aynan jadidlar til birligiga tayanuvchi etnik atama sifatida qo‘lladilar. “Milliyat” - milliylik, millatning o‘zligi, qadriyatlari, butun borlig‘i demakdir. Ma’rifatparvar jadidlar o‘zlarining she’riy, nasriy va publisistik asarlarida millat va milliyat masalalarini ko‘tarib chiqish orqali millatni o‘zligini anglashga, ma’rifatga da’vat etganlari haqida yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudiy, dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist, siyosatshunos, renesans, milliy g‘oya, millat, milliyat, Vatan.

МАХМУДХОДЖА БЕХБУДИЙ - ПРЕДАННОСТЬ НАЦИИ

Аннотация: Данная статья анализируется с точки зрения распространения имени мыслителя среди общественности путем показа чувства Родины, которое охватывает основное содержание произведений Махмудходжи Бехбуди. Движение национального возрождения начала прошлого века невозможно представить без деятельности Махмудходжи Бехбуди. В прошлом понятие «нация», считавшееся символом религиозного единства, использовалось джадидами как этнический термин, основанный на языковом единстве. «Национальность» означает национальность, национальную идентичность, ценности, целостность бытия. Просвещенные джадиды, поднимая вопросы нации и народности в своих поэтических, прозаических и публицистических произведениях, побуждали нацию осознать свою идентичность и стать просвещенной.

Ключевые слова: Махмудходжа Бехбуди, драматург, театральный художник, издатель, журналист, политолог, Возрождение, национальная идея, нация, национальность, Родина.

MAHMUDKHOJA BEHBUDIY - DEVOTION OF THE NATION

Abstract: This article is analyzed in terms of spreading the name of the thinker to the public by showing the feeling of the Motherland, which covers the main content of Mahmudhoja Behbudi's works. The national revival movement at the beginning of the last century cannot be imagined without the activity of Mahmudhoja Behbudi. In the past, the concept of "nation", which was considered a symbol of religious unity, was used by the Jadids as an ethnic term based on linguistic unity. "Nationality" means nationality, nation's identity, values, whole being. Enlightened Jadids, by raising issues of nation and nationality in their poetic, prose and journalistic works, encouraged the nation to realize its identity and become enlightened.

Key words: Mahmudhoja Behbudi, playwright, theater artist, publisher, journalist, political scientist, renaissance, national idea, nation, nationality, Homeland.

KIRISH

O'tgan asr boshidagi milliy uyg'onish harakatini faoliyatidan ayri tasavvur etib bo'lmaydi. Jadidshunos Begali Qosimovning ta'kidlashicha: "Mahmudxo'ja Behbudiy XX asr bo'sag'asidagi Turkistonning orzu-armonlaridan biri sifatida maydonga keldi. U o'z davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlarida faol qatnashgan eng yirik namoyandasi, yangi zamon o'zbek madaniyatining asoschisi edi. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi. Mustaqil jumhuriyat g'oyasining asoschilaridan biri, yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o'zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist edi. Buni ulug' millatparvarning zamondoshlari ham e'tirof etgani ma'lum. Siyosiy, ijtimoiy faoliyati va bilimining kengligi jihatidan Turkistonning o'sha vaqtdagi jadidlaridan unga teng keladigani yo'q deb o'ylayman". Mashhur davlat arbobi Fayzulla Xo'jaevning Behbudiy haqidagi bu so'zlarida zarracha mubolag'a yo'q. Zero, "Mahmudxo'ja Behbudiy siyosatshunos va publisist, adib va pedagog, noshir va jurnalist sifatida keng qamrovli faoliyat olib bordi. Har bir ishida bosh mezon millat va milliyat masalalari bo'ldi.

ASOSIY QISM

G'oyasizlik-chi! Millatni zaiflashtiruvchi, turg'unlikka tanazzulga olib boruvchi mana shu g'oyasizlik, maqsadsizlikdir. Bu masala Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarida ham yetakchi o'rin tutadi. "Bir millatning quvvat va matonati uning saodati va farog'ati ahlining oz-ko'pligi bilan emas, a'zolaridagi madaniyat va taraqqiyotga omil hayotiy xususiyatlarining darajasi bilan o'lchanadi", - deb yozadi Mahmudxo'ja Behbudiy "Xayrul umuri avsatuho" maqolasida - Ilm-hunar g'ayrat va mehnat bilan qo'lga kiradi [1:24]. G'ayrat va mehnat esa ilmu hunar tufayli samara beradi. Bular o'zaro bog'liq tushunchalardir. Qavmining ko'pchiligi jisman sog' bo'lib, ilmu hunardan bebahra qolishi va hayoti parishon bo'lib, o'zini himoya qilmoqdan ojiz holga tushishi mumkin. Ilm-ma'rifatda quvvatli yevropa millatlarining sog'lom Afrikani asoratga olishlari bejiz emas. Behbudiy millat ravnaqi uchun universitetlar lozimligini dil-dildan his

qildi. 1918 yilda Toshkentda ochilgan Turkiston musulmon dorilfununini chin yurakdan tabrik etdi. O'sha yili Samarqandda uning sho'basini ochib, bugungi Milliy universitetimizning maydonga kelishida o'zining munosib hissasini qo'shdi. Jadidchilik va jadidlarning bugungi kunda o'rganilishi, targ'ib qilinishi havodiy zarur. Biz uchinchi Renessansni "strategik vazifa" deb qarasaq, uni "milliy g'oya darajasiga" ko'tarmoqchi bo'lsak, jadidlarimiz ta'kidlaganidek, "har kim o'zgarishi kerak, har kim o'zgarishni o'zidan boshlashi kerak". Bu o'rinda, ayniqsa, ziyolilar, mansabdor ma'murlar o'zgarishni o'zlaridan boshlamas ekan, biz oldimizga qo'ygan yuksak strategik vazifani uddalay olmaymiz. Jadidlar islohotni maktabdan, aniqrog'i, boshlang'ich maktabdan boshladi. Bu bejiz emas edi. Mahmudxo'ja Behbudiy boshchiligidagi Turkiston jadidlari boshlang'ich ta'limni ona tilida berishga mo'ljallangan milliy maktablarning umummilliy institutini yaratishga qaratilgan dasturni taklif etdi. E'tibor bering, boshlang'ich ta'lim bolaning ona tilida berilishi kerak. Yaqin tariximizdan ma'lumki, bundan 120-130 yillar oldin ham maktablarda o'qitiladigan birorta turkiy tildagi kitob mavjud emas edi. Barcha dars kitoblari fors yoki arab tilida edi. Jadidlar bola boshlang'ich savodini o'z ona tilida chiqarishi unga millat, milliyat tushunchalarining chuqurroq singdirilishini ta'minlaydi, deb qaradilar. O'z navbatida, Turkiston jadidlarining yetakchisi Mahmudxo'ja Behbudiy quyi va yuqori maktabning isloh etilishi, millatning isloh etilishiga olib keladi, deb hisobladi. Uning ta'kidlashicha, millatning isloh etilishi bu milliy g'oya bo'lib, uni barcha targ'ib qilishi kerak. Mana Behbudiy taklif qilgan milliy g'oya. Behbudiy "umummilliy g'oya" mohiyatini tushuntirar ekan, ushbu g'oya qolgan barcha g'oyalardan yuqori turishi kerakligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, millatni ulug'lash, maqsadlarni yuqori ko'tarish, millatning haqiqiy birligi – bu "umummilliy g'oya"ning tub mohiyatini tashkil etadi. Bu g'oya millatning kelajakka intilishi va undan keladigan foydasini aks ettirishi lozim. Behbudiy boshliq barcha jadidlar xalqni isrofli tadbirlardan voz kechib, ularga sarf qilinadigan mablag'ni milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida milliy kadrlar tayyorlash uchun davlat va xorijiy ta'lim muassasalarida yoshlarning tahsili uchun yo'naltirishga da'vat etdi. Behbudiy bu harakatni umummilliy ishlar, oliy maqsadlar, xohishlar va intilishlar deb atadi. Oliy maqsadlar, xohish va intilishlarni amalga oshirish uchun esa iroda, aniqroq aytadigan bo'lsak, siyosiy iroda kerak edi. Behbudiy XX asr boshidagi Turkistonning yirik siyosiy arbobi sifatida Turkiston Muxtoriyatining tashkil etilishidan 11 yil avval, 1906-yili "Turkiston milliy-madaniy muxtoriyati" loyihasini ishlab chiqqan va uni yuqori miqyosida muhokama qilinishi uchun Rossiya davlat Dumasiga yo'llagan edi. Bu loyihada Behbudiy ta'lim-tarbiya, ayniqsa, yer masalasini qat'iy qo'ydi va rus muhojirlarini ko'chirib kelmaslik, hosildor yerlar mahalliy aholining ixtiyorida qolishi kerakligi haqida yozdi [2:3]. Millat va milliyat masalalari barcha zamonlarda ham dolzarb bolib kelgan. Lekin XX as boshlarida jadidlarimiz bu masalani hayot-mamot masalasi sifatida kun tartibiga

qo'ydi. O'tmishda din birligining timsoli hisoblangan "millat" tushunchasini aynan jadidlar til birligiga tayanuvchi etnik atama sifatida qo'lladilar. "Milliyat" - milliylik, millatning o'zligi, qadriyatlar, butun borlig'i demakdir. Ma'rifatparvar jadidlar o'zlarining she'riy, nasriy va publisistik asarlarida millat va milliyat masalalarini ko'tarib chiqish orqali millatni o'zligini anglashga, ma'rifatga da'vat etdilar. Bu mavzu, ayniqsa, publitistikada keng yoritildi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Tavallo, Hamza, Abdulhamid Cho'lpon singari ma'rifatparvar jadidlar millat tanazzulining sabablari, uni jaholatdan qutqarish yo'llari, taraqqiyoga to'siq bo'layotgan omillar orqali o'tkir publisistik maqolalar yozdilar. Jadid publitsistikasi, xususan, Mahmudxo'ja Behbudiyning publisistik maqolalari mutaxassislarimiz tomonidan ko'p o'rganilgan bo'lishiga qaramay, bu davrda yaratilgan publisistik asarlarda millat va milliyat masalalari qanday yoritilgani, mutafakkir jadid adiblari matbuotdagi chiqishlarida milliy o'zlikni asrash, rivojlangan millatlar darajasiga yuksalish muammosiga qanday munosabat bildirgani alohida organilgan emas. Mutaxassislar milliy uyg'onish davri deb ataydigan XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi adabiy jarayonni, bu davida yashab faoliyat ko'rsatgan, millatni yuksak madaniyat va ma'rifatga targ'ib etgan ma'rifatparvar ijodkorlar, ayniqsa, Turkiston jadidchiligining karvonboshisi Mahmudxo'ja Behbudiy merosini organish bugungi kunda, ayniqsa, alohida ahamiyatga ega. [5:78]. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A. Karimov to'g'ri ta'kidlaganidek, "jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch – ma'rifatdir. Asrimiz boshida Turkistonda kechgan vogealarni bir eslang. Nega bu o'lkada o'sha yillari marifatchilik harakati har qachongidan ham kuchayib ketdi? Negaki, chor Rossiyasi asoratiga tushib qolib, butkul tanazzulga yuz tutgan o'lkani uyg'otishga, xalqning ko'zini ochishga faqat ma'rifat orqaligina erishish mumkin edi". Masalaning ana shu jihatida e'tibor bersak, jadid adabiyotining yetuk namoyandasi Mahmudxo'ja Behbudiy publisistik maqolalarida millat va milliyat masalalarining yoritilishi muammosini alohida organish organish dolzarb ahamiyatga ega ekani ma'lum bo'ladi [3:23]. "Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi"da qozixona doirasidagi barcha hujjatlar mahalliy tilda yozilishi kerakligidan Rusiya adliya mahkamalari sayloviga va undagi mansablarga saylanmoqqa musulmonlar hagli bo'lishigacha, Turkiston maishatidan xabarsiz yuristlarning Turkiston adliya mahkamalariga hokim tayinlanmasligi zarurligidan Turkiston maktab va madrasalari hukumat nazoratidan ozod etilishi-yu rus harfini musulmon maktabiga joriy etmaslikkacha, Turkiston xalqi talab qilmaguncha Turkistonga muhojir yuborilmasligi talabidan Turkiston shaharlari ichidagi yerlar xoh muvaqqatan, xoh abadiy bo'lsun, gayrimusulmonlarga berilmasligi kerakligigacha keng miqyosdagi masalalar kun tartibiga qo'yilgan edi. Ta'kidlash kerakki, Mahmudxo'ja Behbudiy yashagan mustabid tuzum sharoitida "Turkistonga avtonomiya berilmog'i lozim"igi haqida

Rusiya Davlat Dumasiga murojaatnoma yozish, hatto uning bandmaband tuzilgan loyihasini tagdim etish chinakam jasorat edi [4:45].

XULOSA

Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston muxtoriyati g'oyasining nafaqat nazariyotchisi, balki tashkilotchilaridan biri sifatida maydonga chiqdi. 1917 yil 16 noyabrda e'lon qilingan Turkiston muxtoriyatining - mustaqillik sari qo'yilgan dadil qadamning faol tashabbuskorlaridan, ma'naviy rahnamolaridan boldi. Mahmudxo'ja Behbudiy nafaqat qirg'iz, qozoq, o'zbek, turkman singari turkiy millat vakillari, balki arab, fors, Turkistondagi, Qozog'istondagi va Turkmanistondagi barcha musulmonlar, hatto yahudiy va xristianlar birlashib, ittifoq bilan muxtoriyatni amalga oshirishi va saqlab qolishi zarurligi haqida chaqiriq bilan chiqdi. Behbudiy Turkistondagi barcha xalqlarni, tilidan, diniy mansubligidan qat'i nazar, ittifoq bolishga, umumiy manfaat yolida birlashishga, Turkiston muxtoriyatini saqlab qolishga chaqirdi. Qozoq birodarlariga murojaat etib ochiq xat yozar ekan, barchani ittifoq bo'lishga chaqirdi. Haq berilmasligi, balki olinishini uqtirdi. Boshqa xalqlar, masalan, serblar, italyanlar, armanilar, slavyanlar, polyaklar va boshqalar, hatto dunyoning u bir uchidagi qarindoshlari bilan birlashishini, o'zga katta va quvvatli davlatlarga tobe bo'lub, yutilib, hatto tilini yo qotgan o'z jinsdoshlarini ajratib olib, birlashmoq uchun jon va kuchlarini sarf etar ekan, shonli o'tmishga ega turkiylar o'z ichidagi qarindoshlarimizdan ayrilishi uyat, ahmoqlik, millat tomiriga bolta urish bo'lishini ta'kidladi. Mahmudxo'ja Behbudiyning publisistik merosi millat va milliyat masalalari keng yoritilganligi jihatidan milliy o'zlikni saqlash, milliy ma'rifatning yuksalishi kabi o'lmas g'oyalarni o'zida mujassam etganligi bilan bugungi kunda ham alohida ahamiyatga ega. Adibning bu boradagi qarashlari o'rganish zamonamiz yoshlari qalbida Vatan va millatga muhabbat tuyg'usini kuchaytirishga, bu orqali mamlakatimiz kelajagining nurli bo'lishiga xizmat qiladi. Mahmudxo'ja Behbudiy millat uchun eng fidoyi shaxslardan biri bo'lgan.

MANBALAR/ REFERENCES

1. Adhamjon Otahanov, "Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida vatan milliy g'oya va millat tarixi masalalarining yoritilishi" maqola, 2023.
2. Adhamjon Otahanov, "Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida vatan milliy g'oya va millat tarixi masalalarining yoritilishi" maqola, 2023
3. Махмудхужа Бехбудий. Танланган асарлар. 3-нашри. (Нашрга тайёрловчи, сузбоши ва изохлар муаллифи Б.Косимов). Т.: "Маънавият", 2006
4. Гаспринский И. Хаёт ва мамот масаласи (Таржимон, тупловчи, нашрга тайёрловчилар: Б.Косимов, З.Абдирашидов). - Т.: "Маънавият", 2006
5. Жабборов Н. Марифат надир. - Т.: "Маънавият", 2010.